

**OLIY MAJLIS DEPUTATLARINING “YANGI O'ZBEKISTON”
ISLOHOTLARIDAGI O'RNI: TARIXIY RETROSPEKTIVA VA STRATEGIK
ISTIQBOLLAR**

Omanboyev Ibrohim Shavkat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Moliya” fakulteti talabasi. Shuningdek: Xalq deputatlari Toshkent viloyati Nurafshon shahar Kengashi bosh mutaxassisi.

Ilmiy rahbar: Xalikov Ulug'bek Rustamovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishi O'zbekiston parlamentarizm tizimining evolyutsion taraqqiyotini falsafiy va huquqiy rakursda tahlil qiladi. Maqolada SSR davridagi “kvazi-parlamentarizm” inqirozi va Yangi O'zbekistonning “proaktiv parlamentarizm” modeliga o'tish jarayonlari qiyosiy o'rganilgan. Tadqiqotning asosiy yangiligi — parlament nazoratining samaradorligini oshirishda “siyosiy mas'uliyat” va “ijtimoiy ishonch” dialektikasini asoslab berishdan iborat. Shuningdek, AQSh Senati tajribasi misolida milliy qonun chiqaruvchi organning institutsional mustaqilligini ta'minlash mexanizmlari taklif etilgan. Maqola davlat boshqaruvini demokratlashtirish sharoitida deputatlarning transformatsiyalashuv roli va funksional vazifalarini optimallashtirishga qaratilgan amaliy xulosalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Parlamentarizm ontologiyasi, institutsional transformatsiya, Oliy Majlis, SSR Oliy Kengashi, Yangi O'zbekiston strategiyasi, qonun ijodkorligi dialektikasi, siyosiy plyuralizm, parlament nazorati, legitimlik, AQSh Senati modeli.

Аннотация: В данной статье анализируются эволюционные этапы развития системы парламентаризма в Узбекистане через призму философско-правового подхода. Сравнительно изучены переход от “квазипарламентаризма” советского периода к модели “проактивного парламентаризма” Нового Узбекистана. Основная научная новизна исследования заключается в обосновании диалектики “политической ответственности” и “общественного доверия” в повышении эффективности парламентского контроля. На примере опыта Сената США предложены механизмы обеспечения институциональной независимости национального законодательного органа. Статья завершается практическими выводами, направленными на оптимизацию трансформационной роли и функциональных задач депутатов в условиях демократизации государственного управления.

Ключевые слова: *Онтология парламентаризма, институциональная трансформация, Олий Мажлис, Верховный Совет СССР, стратегия Нового Узбекистана, диалектика законотворчества, политический плюрализм, парламентский контроль, легитимность, модель Сената США.*

Abstract: *This research paper analyzes the evolutionary stages of the parliamentarism system in Uzbekistan from a philosophical and legal perspective. The transition from the “quasi-parliamentarism” of the Soviet era to the “proactive parliamentarism” model of New Uzbekistan is comparatively studied. The main scientific novelty of the research lies in substantiating the dialectics of “political responsibility” and “social trust” in increasing the effectiveness of parliamentary oversight. Using the experience of the US Senate as an example, mechanisms for ensuring the institutional independence of the national legislature are proposed. The article concludes with practical findings aimed at optimizing the transformational role and functional tasks of deputies in the context of the democratization of public administration.*

Keywords: *Ontology of parliamentarism, institutional transformation, Oliy Majlis, Supreme Soviet of the USSR, New Uzbekistan strategy, dialectics of lawmaking, political pluralism, parliamentary control, legitimacy, US Senate model.*

KIRISH

Bugungi kunda parlamentarizm shunchaki boshqaruv usuli emas, balki xalq xohish-irodasining davlat darajasidagi ko‘rinishi hamda jamiyat bilan davlat o‘rtasidagi kelishuvning asosiy kafolatidir. Davlat tizimida qonun chiqaruvchi organning nufuzi va imkoniyatlari jamiyatdagi demokratik o‘zgarishlarning qanchalik barqaror ekanini ko‘rsatadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, mamlakatimizga nafaqat qonun qabul qiladigan, balki islohotlarning tashabbuskori bo‘ladigan va ularning ijrosini qat’iy nazorat qiladigan parlament zarur.²⁴ Ushbu yondashuv O‘zbekistonda parlament tizimi butunlay yangi va tub mohiyatga ega bosqichga o‘tganidan dalolat beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi an’anaviy “davlat – jamiyat – inson” ko‘rinishidan, inson manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yuvchi “inson – jamiyat – davlat” tartibiga o‘zgarmoqda. Mazkur islohotlarning markazida turuvchi va xalq irodasini siyosiy qarorlarga aylantiruvchi asosiy shaxs esa deputatdir.²⁵ Shuning uchun ham islohotlarning natijasi faqat qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki xalq vakillarining jamiyat hayotidagi real ta’siri bilan o‘lchanadi.

²⁴ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021. – B. 112-115

²⁵ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – T.: “O‘zbekiston”, 2023. – B. 24-28.

Tarixiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, sobiq tuzum davrida va o'tish bosqichining boshlarida parlament ko'p hollarda ijro hokimiyati qarorlarini shunchaki qonuniy ravishda tasdiqlab beruvchi "rasmiyatchilik idorasi" vazifasini bajargan.²⁶ Biroq, bugungi kunda Oliy Majlis faoliyati klassik qoidalarga muvofiq, hokimiyatlar bo'linishi tizimida haqiqiy muvozanatni saqlab turuvchi asosiy ustunga aylanishi zarur. Bu esa deputatlardan nafaqat qonun ijodkorligida bilimdonlikni, balki kuchli parlament nazoratini o'rnatishda siyosiy jasoratni ham talab etadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — Oliy Majlis faoliyatini tarixiy tajriba va rivojlangan davlatlar (xususan, AQSh Senati) misolida chuqur o'rganishdir. Tadqiqotda deputatlarning nufuzini oshirish, ularning hukumatga bog'lanib qolmagan mustaqil siyosiy kuchga aylanishi hamda islohotlar samaradorligini ta'minlash yo'llarini ishlab chiqishga e'tibor qaratiladi. Zero, parlamentning kuchli bo'lishi — davlatning barqarorligi va islohotlarning ortga qaytmasligini ta'minlovchi eng muhim mezondir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyo miqyosida parlament tizimi qonun ustuvorligini va davlat boshqaruvidagi muvozanatni saqlaydigan asosiy poydevor sifatida o'rganiladi. Ushbu sohaning ilmiy asoslari J.Lokk va Sh.Monteskye kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan hokimiyatning bo'linish tamoyiliga asoslanadi. Monteskye fikricha, jamiyatda erkinlik bo'lishi uchun qonun chiqaruvchi organ ijro etuvchi idoralardan mustaqil bo'lishi va ularni nazorat qilib turishi shart.²⁷

Hozirgi o'zbek siyosatshunosligida A.Xaydarov va N.Jo'rayev kabi tadqiqotchilar milliy parlament tizimini o'rganib, Oliy Majlisning vazifasi faqat qonun qabul qilish emas, balki jamiyatda tinchlikni saqlashga ham qaratilganini ta'kidlashadi.²⁸ Ayniqsa, davlat idoralarning xalq oldidagi mas'uliyatini oshirishda parlament nazoratining o'rni juda muhimdir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z asarlarida parlament tizimidagi islohotlarning yangi yo'nalishlarini ko'rsatib berdi. Unda parlament nazorati xalq nazoratining eng yuqori shakli deb baholanishi, deputatlar zimmasiga nafaqat qonuniy, balki katta siyosiy mas'uliyat yukladi. Bu yangicha yondashuv parlamentni xalq va davlatni birlashtiruvchi ishonchli vositaga aylantirishni ko'zda tutadi.²⁹

²⁶ Xaydarov A. Parlamentarizm: nazariya va amaliyot. – T.: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2019. – B. 45-50.

²⁷ Hamilton A., Madison J., Jay J. The Federalist Papers. – New York: Signet Classics, 2003. – B. 120-125.

²⁸ Xaydarov A. Parlamentarizm: nazariya va amaliyot. – T.: TDYU, 2019. – B. 65-72.

²⁹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2021. – B. 150-155.

G'arb olimi F.Zakariya o'z tadqiqotlarida faqat saylovlar o'tkazish bilan haqiqiy demokratiyaga erishib bo'lmashligini aytadi.³⁰ Uning fikricha, demokratik tuzum mustahkam bo'lishi uchun parlament hukumatdan erkin bo'lishi va o'z irodasiga ega bo'lishi kerak.

Bizning ishimizda ushbu qarashlar umumlashtirilib, O'zbekistonning milliy qadriyatlari va zamonaviy talablar o'zaro bog'lanadi. Bu esa deputatlar ishini baholashda yangicha uslublardan foydalanishni taqozo etadi. Yangi O'zbekistonda parlament shunchaki boshqa davlatlar nusxasi emas, balki xalq irodasiga tayanib faol ishlaydigan organdir.³¹

Davlat rahbari ta'kidlaganidek, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak.³² Shunga ko'ra, deputatlar faoliyatini baholashda faqat ovoz berish emas, balki odamlar hayotini yaxshilashdagi tashabbuslari va hukumat ustidan o'rnatilgan nazoratning natijasi asosiy o'ringa chiqadi. Parlamentning "islohotlar yetakchisi" sifatida e'tirof etilishi uning mazmun-mohiyatini yangi bosqichga ko'tardi. Bu esa deputatdan nafaqat qonunlarni bilishni, balki xalq dardi bilan yashaydigan jasoratli va mas'uliyatli shaxs bo'lishni talab qiladi. Shu tariqa, milliy parlament modelimiz inson qadrini ulug'lashga xizmat qiladigan mukammal tizim sari bormoqda.

Zamonaviy tadqiqotlarda parlamentning moliyaviy nazorat funksiyasi uning qonun ijodkorligi rovidan ustunroq qo'yilmoqda. Xususan, Ye.S.Kurbatova o'z izlanishlarida davlat budjetini tasdiqlashda parlament a'zolarining "moliyaviy tahlil" ko'nikmalari korrupsiyani 30 foizga kamaytirishini isbotlagan. Shuningdek, xalqaro ekspert J.Gallego tomonidan ilgari surilgan "Raqqamli parlamentarizm" konsepsiyasi deputat va saylovchi o'rtasidagi masofani qisqartirish orqali qarorlar qabul qilish jarayonida shaffoflikni ta'minlashning eng samarali yo'li sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa Yangi O'zbekiston sharoitida deputatlarning nafaqat siyosiy, balki texnologik va moliyaviy savodxonligini oshirishni strategik zaruriyatga aylantiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv hamda obyektivlik tamoyillari tanlab olindi. Tadqiqot obyekti hisoblangan parlament instituti va deputatlar faoliyatini mukammal o'rganish maqsadida quyidagi ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi:

1. Tarixiy-qiyosiy tahlil: Mazkur metod yordamida SSR davridagi "Oliy Kengash" va mustaqil O'zbekiston parlamentining shakllanish bosqichlari retrospektiv tahlil qilindi.³³ Bunda o'tmishdagi unaritar boshqaruvning parlamentarizmga ta'siri va Yangi

³⁰ Zakaria F. The Future of Freedom. – New York: Norton & Company, 2003. – B. 88-94.

³¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – T.: "O'zbekiston", 2023. – B. 40-45.

³² Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnoma (2020-2022 yillar to'plami). – T.: "Tasvir", 2022. – B. 12-18.

³³ Xaydarov A. Parlamentarizm: nazariya va amaliyot. – T.: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2019. – B. 88-92.

O‘zbekistondagi institutsional transformatsiya bosqichlari qiyoslandi. Bu tahlil bizga o‘tmishdagi kamchiliklarni anglash va bugungi islohotlar mohiyatini chuqurroq ochib berish imkonini berdi.

2. Komparativistika (Xalqaro qiyosiy tahlil): Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va AQSh Senati (The U.S. Senate) faoliyati qiyosiy o‘rganildi. Ushbu metod xalqaro tajribadagi “tiyib turish va muvozanat” (checks and balances) tizimining milliy qonunchilikka adaptatsiya qilinishi darajasini aniqlashga xizmat qildi.³⁴ Ayniqsa, yuqori palatalarning ijro hokimiyati ustidan nazorat o‘rnatishdagi vako latlari qiyosiy jadval asosida ko‘rsatib o‘tildi.

3. Mantiqiy-falsafiy yondashuv: Deputat obrosining ijtimoiy-psixologik va siyosiy jihatlari dialektik bog‘liqlikda tahlil etildi. Falsafiy rakursda deputatning “xalq vakili” sifatidagi ontologik maqomi va uning jamiyatdagi legitimlik darajasi o‘rtasidagi aloqadorlik o‘rganildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan tamoyilning deputatlar faoliyatidagi falsafiy aksiologiyasi tadqiq etildi.³⁵

4. Statistik tahlil: Maqolada so‘nggi yillarda qabul qilinayotgan qonun loyihalarining mualliflik tarkibi va deputatlarning qonunchilik tashabbuskorligi darajasi raqamlar asosida ko‘rib chiqildi. Statistik ma‘lumotlar parlament faoliyatidagi dinamikani hamda ijro hokimiyati bilan o‘zaro nisbatni matematik aniqlikda ko‘rsatib berishga xizmat qildi.³⁶

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekiston sharoitida parlamentarizm instituti dekorativ xarakterdan proaktiv bosqichga o‘tishning murakkab dialektik jarayonini boshidan kechirmoqda. Tahlillarni quyidagi uchta fundamental yo‘nalishda tizimlashtirish mumkin:

1. Tarixiy-qiyosiy tahlil: Ushbu usul yordamida sobiq ittifoq davridagi “Oliy Kengash” va mustaqil O‘zbekiston parlamentining rivojlanish yo‘li o‘tmishga nazar tashlash orqali solishtirildi. Bunda o‘tmishdagi markazlashgan boshqaruv tizimining parlamentga ta’siri hamda Yangi O‘zbekistondagi idoraviy yangilanish bosqichlari o‘rganildi. Bu tahlil o‘tgan davrdagi xatolarni tushunishga va bugungi islohotlarning asl mazmunini ochib berishga yordam berdi.³⁷

³⁴ Hamilton A., Madison J., Jay J. The Federalist Papers. – Penguin Classics, 1987. – P. 134-140.

³⁵ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021. – B. 172-175.

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining statistik hisobotlari (2022-2024). // www.parliament.gov.uz.

³⁷ Xaydarov A. O‘zbekiston parlamentarizm tarixi: retrospektiv tahlil. – T.: “Adolat”, 2020. – B. 56-62.

Inqiroz mohiyati: Sessiyalarning mavsumiy xarakteri va “partiya chizig‘i”dan chiqmaslik majburiyati parlamentni ijroiya hokimiyatining irodasini qonuniy rasmiylashtiruvchi apparatga aylantirgan.

Oqibat: Bu holat jamiyat ongida parlamentga nisbatan “rasmiyatchilik instituti” degan barqaror stereotipni shakllantirdi. Bugungi islohotlarning falsafiy asosi aynan mana shu stereotipni sindirish va xalq vakilining real siyosiy statusini tiklashga qaratilgandir.

2. Xalqaro solishtirma tahlil (Komparativistika): Izlanish davomida O‘zbekiston Oliy Majlisi Senati va AQSh Senatining ish faoliyati o‘zaro solishtirildi. Bu usul dunyo tajribasidagi “o‘zaro tiyib turish va muvozanatni saqlash” tizimining milliy qonunchiligimizga qanchalik moslashganini aniqlash imkonini berdi. Ayniqsa, yuqori palatalarning hukumat ustidan nazorat o‘rnatish vakolatlari jadval ko‘rinishida ko‘rsatib o‘tiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Senati va AQSh Senati faoliyatining qiyosiy tahlili.³⁸

Ko‘rsatkichlar	O‘zbekiston Respublikasi Senati	AQSh Senati (The U.S. Senate)
Mustaqillik darajasi	Ijro hokimiyati vakillari (hokimlar) senator sanaladi.	Senatorlar ijro hokimiyatidan mutlaq mustaqil professional siyosatchilardir.
Kadrlar siyosati	Vazirlarni tasdiqlashda tavsiyaviy va ma’qullovchi rolga ega.	Davlatning yuqori lavozimlariga tayinlovda qat’iy “Veto” huquqiga ega.
Nazorat mexanizmi	Asosan parlament so‘rovi va eshituvi bilan cheklanadi.	Maxsus tergov qo‘mitalari orqali chuqur “Investigative powers”ga ega.

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy Senatning nazorat funksiyasini kuchaytirish uchun uni ijro hokimiyati vakilligidan (hokimlar ishtirokidan) bosqichma-bosqich xoli qilish zarurati mavjud.

3. Tizimli kamchiliklar va institutsional yechimlar paradigmasi

Hozirgi bosqichda Oliy Majlis faoliyatida kuzatilayotgan kamchiliklar ob’yektiv va sub’yektiv omillar bilan izohlanadi. Quyida ushbu muammolarning ilmiy-amaliy yechimlari taklif etiladi:

2-jadval. Parlament faoliyatidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha mualliflik takliflari.³⁹

³⁸ Hamilton A., Madison J. The Federalist Papers (U.S. Senate analysis). – New York: Signet Classics, 2003. – P. 312-315.

³⁹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021. – B. 180-185.

Kamchiliklar (Muammo)	Sabablar	Taklif etilayotgan yechimlar
Budjet nazoratining yuzaki xarakteri	Vazirliklar xarajatlarining choraklik kesimda deputatlarga hisobdor emasligi.	“Budjet so‘rovi” (Budget Inquiry) tizimini joriy etish: har bir vazirlikning har 3 oylik xarajatlari bo‘yicha deputatlarga moliyaviy tushuntirish so‘rash huquqini berish.
Saylovchilar bilan aloqaning sustligi	Budjet mablag‘larini taqsimlashda hududiy ehtiyojlarning hisobga olinmasligi.	“Raqamli Parlament” (Digital Oversight) platformasida “Budjet xarajatlari bo‘yicha xalq fikri” bo‘limini ochish orqali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish.
Investitsiya loyihalari ustidan nazorat yo‘qligi	Strategik loyihalarni saralashda parlament ishtirokining cheklanganligi.	“Kollektiv deputatlik auditi” mexanizmini yaratish: Hisob palatasi bilan birga yirik sanoat va investitsiya loyihalari bo‘yicha majburiy deputatlik xulosasini berishni qonuniylashtirish.
Qonunchilikda “Hukumat dominant”	Deputatlarda professional ekspertiza va tahliliy apparatning yetishmasligi.	Deputatlar huzurida professional ekspertlardan iborat “Mustaqil strategik tadqiqotlar markazi”ni tashkil etish.

Ushbu takliflarning hayotga tadbiiq etilishi deputatning jamiyatdagi nufuzini oshirish bilan birga, “kuchli parlament — barqaror taraqqiyot” tamoyilining real hayotda ishlashini ta’minlaydi.

STATISTIK TAHLIL VA MUHOKAMA

Parlament ishining qanchalik samarali ekanini bilish uchun deputatlarning qonun loyihalarini taklif qilishdagi faolligi va hukumat ishini nazorat qilish darajasiga qarash kerak. O‘tkazilgan tekshiruvlar shuni ko‘rsatadiki, oxirgi yillarda qonun yaratishda deputatlarning ishtiroki biroz ko‘paygan bo‘lsa-da, asosiy tashabbus hali ham hukumat idoralari qo‘lida qolmoqda.

Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining ma’lumotlari va qabul qilingan qonunlar o‘rganilganda quyidagilar aniqlandi:

2022-2023 yillarda qabul qilingan qonunlarning 80 foizidan ko‘prog‘i bevosita Vazirlar Mahkamasi va boshqa ijro etuvchi idoralar tomonidan tayyorlangan.

Deputatlarning o'zlari ishlab chiqqan va taklif qilgan qonun loyihalari esa umumiy hujjatlarning atigi 15-20 foizini tashkil etmoqda.⁴⁰

Nazorat qilish vazifasi bo'yicha deputatlar tomonidan yuborilgan so'rovlar tahlil qilinganda, ko'tarilgan muammolarning aksariyati kundalik turmush va mahalliy masalalarga tegishli ekani ko'rindi. Davlat xarajatlari (budjet) va muhim islohotlar ustidan doimiy nazorat o'rnatish masalasi esa hali ham yetarli darajada emas. Davlat rahbari ta'kidlaganidek, parlament islohotlarning asosiy kuchi bo'lishi uchun deputatlar shunchaki tayyor hujjatlarni tasdiqlash bilan cheklanmay, qonunlarni o'zlari noldan yaratishlari kerak.⁴¹ Bu holat biz ilgari surayotgan — deputatlarning qonun ijodkorligidagi ulushini 50 foizga yetkazish haqidagi taklifimiz naqadar muhim ekanini isbotlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy Majlis deputatlarining Yangi O'zbekiston islohotlaridagi o'rnini tarixiy va strategik jihatdan tadqiq etish natijasida quyidagi falsafiy-nazariy hamda amaliy xulosalarga kelindi:

Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, milliy parlamentimiz shunchaki qarorlarni ma'qullovchi idora bo'lishdan to'xtab, hukumatning moliyaviy faoliyatini nazorat qila oladigan faol kuchga aylanishi zarur. Buning uchun nafaqat qonuniy huquqlarni kengaytirish, balki deputatlarning xalq dardi bilan yashashini asosiy mezon qilib belgilash lozim. Bizning asosiy taklifimiz — vazirliklar budjeti ustidan "mustaqil parlament tekshiruvi" (auditi) tizimini yo'lga qo'yishdir. Bu orqali xalq mablag'larining har bir so'mi qayerga sarflanayotgani uchun javobgarlik zanjiri yaratiladi.

Tizimli yangilanishning asosi: Deputatlar parlament nufuzini ko'tarish uchun hukumatning "shunchaki hamkori" bo'lishdan voz kechib, uning "xolis nazoratchisi" bo'lishlari shart. Siyosiy xilma-xillik — bu faqat ko'pchilik ovozga ega bo'lish emas, balki turli fikrlar va manfaatlar o'rtasidagi bahslar orqali eng to'g'ri qarorni topish mahoratidir.⁴²

Deputat odobi va mas'uliyati: Zamonaviy deputat xalq bilan gaplashganda murakkab "amaldorlar tili"dan voz kechib, sodda va xalqchil tilga o'tishi shart. Xalq vakili jamiyatdagi eng og'ir muammolarni — energetika tanqisligi, korrupsiya va ijtimoiy adolatsizlik kabi masalalarni nafaqat ijtimoiy tarmoqlarda, balki parlament minbarida dadil gapirishi va ularning yechimi bo'yicha hukumatdan qat'iy talab qilishi lozim.⁴³

Moliya va davlat xarajatlari ustidan nazorat: Deputatlar davlat budjetini tasdiqlashda har bir soha uchun ajratilgan mablag' bo'yicha vazirlardan shaxsiy hisob so'rashlari kerak. Budjet mablag'larining foydasiz loyihalarga sarflanishiga nisbatan parlamentning qat'iy

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-2023 yillardagi faoliyati to'g'risidagi statistik hisobotlari. // www.parliament.gov.uz.

⁴¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — T.: "O'zbekiston", 2021. — B. 175-178.

⁴² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — T.: "O'zbekiston", 2021. — B. 182-185.

⁴³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). — T.: "O'zbekiston", 2023. — B. 55-60.

“Yo‘q” (Veto) deya olish madaniyati shakllanishi zarur. Bu deputatning har bir so‘m uchun saylovchilar oldida javobgar ekanini anglatadi.⁴⁴

Amaliy takliflar: Oliy Majlisning jamiyatdagi obro‘ sini ko‘tarish va islohotlar samarasini ta‘minlash uchun quyidagilar taklif etiladi:

Deputatlarning o‘zlari ishlab chiqadigan qonunlar ulushini 50 foizdan oshirish (hozirgi kunda aksariyat qonunlar hukumat tomonidan taklif etilmoqda);

Har bir vazirlikning yillik xarajatlari ijrosini parlament huzuridagi “mustaqil tekshiruv” yoki “Hisob palatasining parlament oldidagi hisobdorligi” orqali o‘tkazishni qonuniy ravishda belgilab qo‘yish lozim.

Moliya va moliyaviy texnologiyalar rivojlangan davrda parlament nazoratini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida 'Smart Parliament Monitoring' platformasini joriy etishni taklif etamiz. Ushbu tizim orqali har bir deputat o‘z saylov okrugiga ajratilgan budget mablag‘larining sarflanishini real vaqt rejimida (online) kuzatib borish imkoniga ega bo‘ladi. Bu g‘oya xalqaro amaliyotdagi 'Ochiq hukumat ma'lumotlari' tamoyiliga to‘la mos kelib, ijro hokimiyati ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini uzviy bog‘laydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamilton A., Madison J., Jay J. The Federalist Papers. – New York: Signet Classics, 2003.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021.
3. O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. – T.: “Adolat”, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – T.: “O‘zbekiston”, 2023.
5. Xaydarov A. Parlamentarizm: nazariya va amaliyot. – T.: TDYU, 2019.
6. Zakaria F. The Future of Freedom. – New York: Norton & Company, 2003.
7. Kurbatova E.S. Evaluation of the effectiveness of parliamentary control in the financial sphere. // Journal of Economic Research. – 2022. – No. 4. – P. 45-52. (Xorijiy manba)
8. Gallego J. Digital Democracy and Parliamentary Oversight. – Oxford University Press, 2021. – 210 p. (Xorijiy va yangi manba)
9. Abdullayev R. Yangi O‘zbekistonda parlament islohotlari: yutuq va muammolar. // Siyosatshunoslik jurnali. – 2023. – 2-son. – B. 12-18.
10. Tursunova N. Deputatlarning qonunchilik tashabbuskorligi: xalqaro tajriba. // Huquqiy tadqiqotlar. – 2022. – 5-son. – B. 30-35.

⁴⁴ O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. – T.: “Adolat”, 2023. – B. 120-125.

11. Jo'rayev N. Milliy parlamentarizmning falsafiy asoslari. – T.: Ma'naviyat, 2020. – 180 b.

12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining statistik hisobotlari. // parlament.gov.uz, 2024.